

“Ta’lim to’g’risida”gi Qonunning mazmun-mohiyati (O’RQ-637, 23.09.2020)

Qonun bilan jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, har kimga ta’lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

Ta’lim turlari quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta’lim va tarbiya;
- umumiy o’rta va o’rta maxsus ta’lim;
- professional ta’lim;
- oliy ta’lim;
- oliy ta’limdan keyingi ta’lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta’lim.

Umumiy o’rta ta’lim I-XI sinflarni o’z ichiga oladi.

O’rta maxsus ta’lim akademik litseylarda 9 yillik tayanch o’rta ta’lim asosida 2 yil mobaynida amalga oshiriladi.

Professional ta’lim boshlang’ich, o’rta va o’rta maxsus professional ta’lim darajalariga ajratiladi.

Boshlang’ich professional ta’lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida kunduzgi ta’lim shaklida 2 yillik integratsiyalashgan dastur asosida bepul amalga oshiriladi.

O’rta professional ta’lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to’lov-shartnoma asosida davomiyligi 2 yilgacha bo’lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllari bo’yicha amalga oshiriladi.

O’rta maxsus professional ta’lim texnikumlarda davlat buyurtmasi yoki to’lov-shartnoma asosida davomiyligi kamida 2 yil bo’lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllari bo’yicha amalga oshiriladi.

Oliy ta’limdan keyingi ta’limni oliy ta’lim va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin.

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o’rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta’minlaydi.

Ta’lim olish shakllari:

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olish (kunduzgi);
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);
- dual ta’lim;
- oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish;
- katta yoshdagilarni o’qitish va ularga ta’lim berish;
- inklyuziv ta’lim;
- eksternat tartibidagi ta’lim;
- mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.

Qonunga ko’ra, davlat oliy ta’lim, o’rta maxsus, professional ta’lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o’rta maxsus, professional ta’lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki Hukumat qarorlari bilan tashkil etiladi.

Nodavlat ta’lim muassasalarini tashkil etish ularning ta’sischilari tomonidan amalga oshiriladi. Nodavlat ta’lim tashkilotlariga litsenziya Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladi.

Ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish barcha talabgorlar uchun ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi prinsipi asosida amalga oshiriladi, shaxslarning ayrim toifalari bundan mustasno, ularga qonun hujjatlariga muvofiq imtiyozlar berilishi mumkin.

Ta'lim tashkilotlari talabgorlarni va (yoki) ularning ota-onasini yoki boshqa qonuniy vakillarini ustav, litsenziya (nodavlat ta'lim tashkilotlari uchun), davlat akkreditatsiyasi to'g'risidagi sertifikat, o'quv dasturi hamda ta'lim faoliyatini tartibga soluvchi boshqa hujjatlar, ta'lim oluvchilarning huquqlari va majburiyatlari bilan tanishtirishi shart.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar o'qishga o'z ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining roziligiga va tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan qabul qilinadi.

Ayrim ta'lim tashkilotlariga (oliy ta'lim muassasalariga, akademik litseylarga, Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktablar va boshqalarga) o'qishga qabul qilish tanlov asosida amalga oshiriladi.

Davlat oliy ta'lim va professional ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish davlat granti va (yoki) to'lov-shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Chet ellik fuqarolarni O'zbekistonning davlat ta'lim muassasalariga qabul qilish to'lov-shartnoma asosida (bundan davlat granti ajratilgan hollar mustasno) amalga oshiriladi.

Davlat ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish tartibi ushbu ta'lim tashkilotlari tomonidan belgilanadi.

Oliy ta'lim muassasalariga davlat granti asosida o'qishga qabul qilish parametrlari Prezident tomonidan belgilanadi.

Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish chog'ida imtiyozli kontingent uchun qo'shimcha qabul parametrlari belgilanadi.

Shuningdek, mazkur Qonun bilan 1997 yil 29 avgustdagi "Ta'lim to'g'risida"gi hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonunlar o'z kuchini yo'qotdi.

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.



[Ta'lim tog'risida O'zR Qonuni PDF](#)